



**O'ZBEK TILI DARSLARIDA FE'L SO'Z TURKUMINI O'QITISHDA
TA'LIMY O'YINLARDAN FOYDALANISH YO'LLARI
(TURKMAN TILLI MAKTABLAR MISOLIDA)**

Annayeva Maya Radjabbayevna

Nukus davlat

pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim

kafedrasi o'qituvchisi

Allamuratova Gulchinar Ilmuratovna

Nukus davlat

pedagogika institute Boshlang'ich ta'lim fakulteti,

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12663638>

O'zbek tili darslari oldiga qo'yiladigan vazifalar va ularni amalga oshirish yo'llari, har qanday mukammal dastur asosida yaratilgan takomillashgan darslik, samarador usullar bilan o'quvchilar ongiga singdirilgandagina kutilgan natija beradi. Ayniqsa, o'quvchilarning til imkoniyatlaridan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo'lishi, o'z fikrini aniq ifodalashga, zarur bo'lgan so'z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo'llay olishlarini shakllantirishda ta'limiy o'yinlardan foydalanishning ahamiyati juda yuqori. Buning uchun o'zbek tili o'qituvchisi o'z sohasini puxta bilishi, ilg'or pedagogik texnologik hamda zamonaviy o'quv texnik vositalardan yaxshi xabardor bo'lishi lozim.

O'quv mashg'ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil etish, o'quvchilarning dars jarayonida maqsadli boshqara olish ayni kunda o'qituvchilik faoliyatining bosh mezonini hisobladi.

An'anaviy yo'nalishdagi dars didaktik maqsadiga quyidagi bosqichlardan iborat edi:

- yangi bilimlarni o'zlashtirish;
- o'rganilgan bilimlarni amaliy tatbiq qilish orqali mustahkamlash;
- o'tilganlarni takrorlash kabi turlarga ega ekanligi ma'lum [1.03].

Biz taklif qilayotgan innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ta'limiy o'yinlardan foydalanish esa yuqordagi sanab o'tgan mezonlar bilan birga o'quvchilarda ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqni oshirish, atrofidagi sodir bo'layotgan jarayonlarga nisbatan befarq bo'lmaslik, shu bilan birga o'zaro hamjihatlik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lishni ham ta'minlaydi, zero bugungi zamonaviy ta'lim tizimimizning ham bosh maqsadi "o'quvchilarga ta'lim bilan birga tarbiya berish"ni ham o'z ichiga oladi [5.07].

Ta'limiy o'yinlarni dars jarayoniga tatbiq qilishda o'quvchilar bilan munozaralar, didaktik o'yinlar maxsus ijodiy topshiriqlar o'tkaziladi. Innovatsion texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo'llashdan boshlanadi: Masalan, hozirdagi amalda qo'llanilayotgan "O'zbek tili" 4-sinflar uchun mo'ljallangan darsligida fe'l nisbatlariga doir mashqlar berilgan. Ushbu mashqlarni o'quvchiga o'rgatishda ta'limiy o'yinlardan foydalanamiz va har bir fe'l nisbatlariga quyidagi namunadagidek qilib rasmlar tayyorlab olamiz.



Yangi mavzuni tushuntirishdan oldin. O'quvchilar bilan birgalikda rasmlarga qarab gap tuzib olamiz. Bu usuldan foydalanish o'quvchilarda mavzu haqida biroz bo'lsada tushuncha hosil bo'lishga yordam beradi. Shundan so'ng ta'limiy o'yinlardan "Grafik test" o'yin texnologiyasidan foydalangan holda quyidagicha tashkil qilamiz:

Ish tartibi: Har bir ishtirokchiga maxsus jadvalli varaqlar tarqatiladi.

Vazifa: O'qituvchi oldindan tayyorlangan savollarni o'qiydi. Ishtirokchilar har bir savolga javob variantlardan mosini tanlab shu katakchani bo'yaydi. Jarayon yakunida hosil bo'lgan shakl na'munaviy shakl bilan solishtiriladi.

Grafik test

O'ZLIK NISBAT	MAJHUL NISBAT	BIRGALIK NISBAT	ANIQ NISBAT	ORTTIRMA NISBAT

O'zbek tili ta'limida bu kabi ta'limiy o'yin darslarini o'tkazishdan maqsad o'quvchining til darsda olingan bilimlarini sinab ko'rish, o'zaro munozara - muloqot, jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana olish, nutqiy mahorat, tez va

aniq fikrlash darajasini muammoli vaziyatlardan chiqarib olish malakasini baholashdan iboratdir.

Ta'lim jarayonida ta'limiy o'yinlar texnologiyasi - ta'limiy o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati bilan uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning bilim olish faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar ta'limiy o'yinlar darsi deb ataladi. Ta'limiy o'yinlar darslarining bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli - rolly o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferensiyalar, o'yin-mashqlariga ajratish mumkin [3.27].

O'qituvchi avval o'quvchilarni individual, so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlash va uni o'tkazish, ular muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng, ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o'quvchilar ta'limiy o'yinlari darslarida faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, sinf jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

O'qituvchi avval o'quvchilarni individual, so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlash va uni o'tkazish, ular muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng, ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o'quvchilar ta'limiy o'yinlari darslarida faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, sinf jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim [6.04]. Shundan kelib chiqib fe'llarni o'timli va o'timsiz fe'llarga ajratganimizda quyidagi "Venn diagrammasi" usulidan foydalanishimiz mumkin:



Bahs munozara darslarida yechib ulgirilmagan, biror to'xtamga kelinmagan masalalarni oydinlashtirish, to'g'ri, aniq hukm va muxtasar xulosalar chiqarish bilan farqlanadi. Bahs-munozara o'quvchilardan xushyorlikni talab qiladi. U mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida o'ylashga o'z fikrini mantqli va izchil o'rganishga o'rgatadi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsa yuqorida na'muna ko'rsatib o'tilgan usul va metodlar nafaqat fanlararo integratsiya, balki bo'limlar orasidagi o'zaro aloqani ham ta'minlashga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot // Ta'lim taraqqiyoti, 1-maxsus son, 2021.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. T., 1999.
3. Mengliyev B., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Qarshi, 2005.
4. Rafiyev A. O'zbek tili (ta'lim rus va boshqa qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 4-sinf sinfi uchun) darslik, -T.: "O'qituvchi" NMIU, 2020.
5. Ne'matov H.G'. Fe'l, uning forma va kategoriyalari // O'zbek tili va adabiyoti, 2015.
6. X.D Furqatovna. Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv. PEDAGOGS jurnali, Toshkent, 2022/4/15.

